



O`ZBEK TILIDA TINISH BELGILARINING ISHLATILISHI

Pardaeva Barno Bozorovna

QMII akademik litsey o`qituvchisi

Djuraeva Gulbahor Eshmuratovna

QMII akademik litsey o`qituvchisi

Kadirova Gulora Xudaynazarovna

Qarshi davlat universiteti magistranti

QMII akademik litsey o`qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada tinish belgilarining imlomizdagi beqiyos o`rni, tarixi va olimlarimizning bu boradagi fikrlari, o`zbek tilida punktuatsion belgilarning tasniflanishi haqida so`z boradi.

Kalit soʻzlar: punktuatsiya, turish belgilari, undash belgisi, yarim tinish belgisi.

KIRISH

Bilamizki, hozirgi kunda biz uchun imlo masalalari bilan birga tinish belgilarini to`g`ri qo`llash ham muhim va dolzarb masalalardan biri bo`lib qolmoqda. Zeroki, biz bu belgilarni o`z o`rnida to`g`ri qo`llashimiz shart. Tinish belgilarining qo`llanilishi XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlangan. Bunga sabab bo`lgan eng katta narsa matbaachilikning taraqqiy etishidir. Bu haqidagi fikrlar K.Nazarovning ‘Tinish belgilari va yozma nutq’ kitobida keng ko`lamli yoritib bergan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Nima uchun maqolaning nomi aynan ‘Tinish belgilari yoxud turish belgilari’? Buning asosiy sababi o`quvchilarga tinish belgilari haqidagi



tushunchasini kengaytirishga ko`mak berishdir. Hammamizga ma`lumki, punktuatsiya tinish belgilarini o`rganuvchi tilshunoslikning bo`limi hisoblanadi va o`z- o`zidan tinish belgilari birikmasining ma`nosi qanday? – degan savol tug`iladi. Tinish so`zining asosi tinmoq so`zi hisoblanib, gapning ma`lum bir qismida nutqimizda pauza saqlash kerakligini anglatadi va pauza saqlangan qismga ma`lum tinish belgisi qoyiladi. Abdurauf Fitrat o`zining ‘Nahf’ asarida bu belgilarni turish belgilari deb nomlagan. Ushbu kitobda (.) nuqta – to`xtash belgisi, (;) bir tinish belgisi, (,) yarim tinish belgisi, (?) so`rash belgisi, (!) undash belgisi, (:) qo`sh nuqta, (‘) tirnoqlar, (-) chiziq, (...) nuqtalar deb nomlaydi[1]. A. Fitrat tinish belgilarini nomlashda, bizningcha, juda to`g`ri yo`l tutgan. Buning sababi nuqta to`xtashni anglatishi, ikki nuqta bir tinish belgisi, ya`ni bu belgidan so`ng to`liq bitta pauza borligi, vergul esa yarim tinish belgisi va bu belgidan so`ng to`liq bo`lmagan yarim pauzaning mavjudligini har bir o`qiguvchi tezda anglab olishi qiyin emas. Turish belgilari birikmasining ma`nosini ham bu belgilardan so`ng ma`lum bir to`xtam, turishning mavjudligi deb izohlasak bo`ladi.

Punktatsiya (lot. punctum — nuqta; kichkina dog‘) – 1) alifbodan tashqari bo`lgan grafik belgilar (tinish belgilari) tizimi bo`lib, grafika va orfografiya (imlo) bilan birgalikda yozma tilning asosiy vositalarini tashkil etadi. Punktatsiyaning asosiy vazifasi yozma (bosma) matnni qismlarga ajratish, grafik jihatdan shakllantirishdir; 2) yozma matnni punktatsion rasmiylashtirishni tartibga soluvchi, har bir til uchun tarixan shakllangan qoidalar, me`yorlar; 3) Punktatsiya tizimi qonuniyatlarini, shuningdek, tinish belgilarining qo`llanish me`yorlarini o`rganadigan tilshunoslik bo`limi.

Muayyan milliy til grafikasi (yozuvi) 2 xil vositadan: harflar (alifbo) va tinish belgilari (punktatsiya) tizimidan iborat. Punktatsiyaning tarixi, punktatsion tizimning paydo bo`lishi, tinish belgilarining soni turli tillarda turlicha namoyon bo`ladi. Masalan, punktatsion tizim hozirgi ma`no va ko`rinishda G`arbiy



Yevropa tillari yozuvlarida 15-16-asrlarda, rus yozuvida 18-asrda, o'zbek yozuvida esa 19-asrning 2-yarmida paydo bo'lgan. Yoki ingliz tili punktuatsion tizimida apostrof va defis ham tinish belgisi hisoblanib, ularning jami 12 ta bo'lsa, hozirgi o'zbek punktuatsiyasi quyidagi 10 ta tinish belgisidan iborat: vergul, ikki nuqta, ko'p nuqta, nuqta, nuqtali vergul, so'roq belgisi, tire, undov belgisi, qavs, qo'shtirnoq. Punktuatsiyaning qo'llanishida ham tillararo tafovut bo'lishi mumkin. Masalan, ispan tilida so'roq va undov belgilari gapning boshida va oxirida qo'yiladi [2].

O'zbek punktuatsiyasida tinish belgilarining tasnifi. O'zbek punktuatsiyasida tinish belgilari quyidagicha tasnif qilingan:

1. Tinish belgilarining qo'llanish o'rniga ko'ra tasnifi.
2. Tinish belgilarining qo'llanish usuliga ko'ra tasnifi.
3. Tinish belgilarining tuzilish jihatidan tasnifi.
4. Tinish belgilarining vazifasiga ko'ra tasnifi.

Qo'llanish o'rniga ko'ra tinish belgilari uch guruhga ajratiladi:

1.1. Gap oxirida qo'llanuvchi tinish belgilari. 1.2. Gap ichida qo'llanuvchi tinish belgilari. 1.3. Aralash holda qo'llanuvchi tinish belgilari. Gap oxirida qo'llanuvchi tinish belgilari: nuqta (.), so'roq (?) belgisi, undov (!) belgisi. Bu belgilar quyidagi holatlarga ishora qiladi: a) gapning (fikrning) tugallanganligiga; b) gapda qanday mazmun-ma'no ifodalanganligiga; d) gapning tugallanish chegarasiga, keyingi gapdan ajralishiga. Ular ba'zan gap oxiridan boshqa o'rinlarda ham ishlatiladi. Bunday paytda bu belgilar boshqa vazifa bajaradi, maqsad ham har xil bo'ladi: Bu asar H.M.Abdullayev qalamiga mansub (nuqta gap o'rtasida kelgan. Bunda u sintaktik vazifani bajarmaydi). Tinish belgilarining gap oxirida qo'llanishi shu gapning mazmuniga ham ishoradir: nuqta xabar-darak mazmunli gaplarga, so'roq belgisi so'roq mazmunli gaplarga, undov belgisi esa buyruq, tashviq, emotsiya ifodalovchi gaplarga ishora qiladi. Gap ichida qo'llanuvchi tinish belgisi



asosan verguldir. U quyidagi sintaktik vazifalarni bajaradi: a) gap bo`laklarini birlashtiradi (Shahar, qishloqlarimiz yildan yilga obodonlashib bormoqda); b) gap bo`laklarini bir-biridan ajratadi (Toshkentda, shaharning markazida, Mustaqillik maydoni joylashgan); v) gap bo`laklari bilan sintatik jihatdan bog`lanmagan so`z, ibora va gaplarni chegaralaydi (Do`stim, nega kecha darsga kelmading?); g) bog`lovchisiz qo`shma gap qismlarini bir-biridan ajratadi. (Yoz kelib, hamma ta`tilga chiqib kedi). Aralash qo`llanuvchi tinish belgilari – ikki nuqta (:), qo`sh tirnoq (“”), qavs (), tire (–). Bu belgilar gapning boshida, o`rtasida va oxirida ham qo`llanadi. Xususan, tire gap boshida, o`rtasida; ikki nuqta gap oxirida va o`rtasida; qo`sh tirnoq, qavs, ko`p nuqta gap boshida, o`rtasida va oxirida qo`llanadi.

2. Qo`llanish usuliga ko`ra tinish belgilari quyidagicha guruhlanadi:

2.1. Yakka holda qo`llanuvchilar. Bunga faqat ikki nuqta kiradi. 2.2. Yakka va qo`sh holda qo`llanuvchilar. Bu tinish belgilari yakka holda (alohida-alohida, mustaqil) qo`llanishi bilan birga, qo`sh holatda ham qo`llana oladi. Tinish belgilari qo`sh qo`llanganda ikki va undan ortiq tinish belgisi bir o`rinda ketma-ket (birgalikda) ishlatiladi. Bular qo`sh qo`llanganda: a) o`z shaklini to`liq saqlaydi (so`roq+undov tipida: ?!); b) o`z shaklini o`zgartiradi (qo`sh tirnoq va qavs kabi); d) bir tinish belgisi ikkinchisining hisobiga qisqaradi (vergul va ko`p nuqta qo`sh qo`llanganda, vergul qisqaradi); e) bir belgining o`zi (mas., undov belgisi) takrorlanadi.

3. Tuzilishiga ko`ra tinish belgilari ikki guruhga ajratiladi:

3.1. Bir elementli tinish belgilari: vergul, tire, nuqta. 3.2. Ko`p elementli tinish belgilari: a) ikki elementli tinish belgilari: ikki nuqta (:), nuqtali vergul, so`roq, undov va qavs; b) uch elementli tinish belgilari: ko`p nuqta (...); d) to`rt elementli tinish belgilari: qo`sh tirnoq.

4. Vazifasiga ko`ra tinish belgilari quyidagi guruhlariga ajratiladi:

4.1. Chegaralovchi tinish belgilari: qo`sh tirnoq, qavs. Bunday belgilar



yozma matndagi ayrim qismlarning leksik-semantik farqlanishi va ajralishini, grammatik-stilistik chegaralanishini, ularning boshlanish va tugallanish nuqtasini hamda o`rinlashuv doirasini ko`rsatadi. 4.2. Ayiruvchi tinish belgilari: nuqta, so`roq, undov, nuqtali vergul. Bu belgilar yozma matnni yoki ularning qismlarini bir- biridan ajratish va muayyan qismning tugallanishini ko`rsatish uchun xizmat qiladi. 4.3. Murakkab vazifali tinish belgilari: a) "ajratish + biriktirish" vazifasini bajaruvchilar (ikki nuqta); b) "ajratish + chegaralash + biriktirish" vazifasini bajaruvchilar (vergul,tire); s) fikrning bo`linishi, qisqarishini va turli emotsiyalarni bildiruvchilar (ko`p nuqta) [3].

XULOSA VA MUNOZARA

Hozirda maktab o`quvchilari, talabalarning ham matnlarni yozayotganda tinish belgilarini noo`rin qo`llash yoki umuman qo`llamaslik holatlarini juda ko`p kuzatamiz. Bundan tashqari yozilgan ijodiy ish, esse, ish qog`ozlaridagi 70-80% xatoliklar aynan punktuatsion xatoliklar bilan bog`liq ekanligiga ham ko`z yumib bo`lmaydi. Holbuki, hozirda bizning ko`zlarimizdagi 'linzalar' faqat imlo bilan bog`liq masalalarnigina ko`ryapti, xolos. Lekin kasal tananing faqat bir a'zosini davolash bilan ma'lum natijaga erishish mushkul, shu sababdan kichik muammo sifatida qaraladigan bunday dardlarga shifo topilmas ekan, bu tana hech qachon sog` bo`lmaydi!

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Abdurauf F.Tanlangan asarlar.-T,: 'Ma'naviyat' ,2006.-B.177
2. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Punktatsiya>
3. Jamolxonov H. Hozirgi o`zbek adabiy tili. (O`bekiston Respublikasi Oliy va o`rta maxsus ta'lim vazirligi oliy o`quv yurtlari uchun darslik sifatida nashrga tavsiya etgan). – T,: O`zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nasbriyoti, 2013. – B.194-195.